

TTPU huzuridagi Ilmiy kengashda PhD ilmiy darajasini olish uchun birinchi dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi

Bugun 2022 yilning 19 avgust kuni Toshkent shahridagi Turin Politeknika universiteti huzuridagi PhD.22/01.02.2022 T.144.01 raqamli Ilmiy kengashda 05.08.06 – “G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatalish” ixtisosligi bo'yicha texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun birinchi dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.



www.polito.uz



Tadqiqotchi Yusupov Sarvarbek Sodiqovichning "Innovatsion intellektual transport tizimlarini mahalliy sharoitda sinergiyasini asoslash" mavzusidagi himoyasi yuzasidan taqdimot ma'ruzasi tinglandi.

Yig'ilish an'anaviy va onlayn shaklda uyg'unlashgan holda o'tkazildi. Ma'ruzadan so'ng, ilmiy ish bo'yicha muhokama bo'lib, unda tadqiqotchi yig'ilish a'zolari savollariga javob berdi.



www.polito.uz



www.polito.uz



www.polito.uz





Shundan so'ng, tadqiqotchining rasmiy opponentlari so'zga chiqib, dissertatsiya bo'yicha o'z xulosalarini berib, mavzuning dolzarbliji, ilmiy yangiligiga to'xtaldilar.

Yig'ilish yakunida, ilmiy kengash qaroriga ko'ra, Yusupov Sarvarbek Sodiqovichga texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini berish joiz deb topildi.